



## ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-mart*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.: 74 228-30-57*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosati boshqaruvida to'g'ri qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 917 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 103 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 814 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 009,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 109,7 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 351,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 658,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 774,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,2 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon Viloyati</b>	<b>5 009,7</b>	<b>109,7</b>
Andijon sh.	1 457,9	109,2
Xonobod sh.	35,6	110,5
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	323,4	110,3
Andijon	426,7	109,9
Baliqchi	413,3	111,2
Bo'ston	79,6	100,5
Buloqboshi	110,8	107,4
Jalaquduq	112,6	109,2
Izboskan	155,1	111,7
Ulug'nor	83,3	107,7
Qo'rg'ontepa	210,9	126,4
Asaka	494,3	113,6
Marhamat	199,3	110,3
Shahrixon	447,1	107,2
Paxtaobod	192,8	103,8
Xo'jaobod	267,0	103,8


2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (9,2 %), Xonobod shahri (10,3 %), Baliqchi (11,2 %), Izboskan (11,47 %), Asaka (13,6 %), Qo'rg'ontepa (26,4 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-mart)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ni tashkil qildi.


## 2023-2024- yillarda chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-mart oylarida o'sish sur'ati **109,7** % ni tashkil qildi.



Ulushi, foizda



Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 29,1 % bilan 1 457,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 0,7 % bilan 35,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm


Andijon sh.	1 457,9
Asaka	494,3
Shahrixon	447,1
Andijon	426,7
Baliqchi	413,3
Oltinko'1	323,4
Xo'jaobod	267,0
Qo'rg'ontepa	210,9
Marhamat	199,3
Paxtaobod	192,7
Izboskan	155,1
Jalaquduq	112,6
Buloqboshi	110,8
Ulug'nor	83,3
Bo'ston	79,6
Xonobod sh.	35,6

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-mart oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4 658,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 10,4 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,0 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,0 % ga o'sdi va 351,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,0 % ulushiga to'g'ri keldi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,0 %), Qo'rg'ontepa (98,9 %), Shahrixon (98,2 %), Xo'jaobod (98,1 %), va Marhamat (97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (17,1 %), Jalaquduq (9,1 %), Andijon (6,1 %) tumanlarida kuzatildi.

7,0 %

93,0 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-mart oylarida holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 472,7 ming. so'm (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan (107,4 %) ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (3 022,8 ming so'm), Xo'jaobod ( 2 219,7 ming so'm) va Oltinko'l ( 1 680,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-mart), foizda




**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>774,7</b>	<b>118,2</b>
Andijon sh.	144,0	96,7
Xonobod sh.	2,4	225,6
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	15,2	122,7
Andijon	17,7	77,6
Baliqchi	47,8	131,5
Bo'ston	4,5	72,8
Buloqboshi	23,2	104,5
Jalaquduq	20,7	127,3
Izboskan	14,6	289,4
Ulug'nor	24,1	99,7
Qo'rg'ontepa	59,7	325,1
Asaka	105,7	143,3
Marhamat	51,7	147,4
Shahrixon	158,1	115,8
Paxtaobod	58,4	89,8
Xo'jaobod	26,9	85,6


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-mart)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-mart)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 774,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 118,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 299,3 mlrd. so'mni (113,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 475,4 mlrd. so'mni tashkil etdi (139,0 %).

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 299,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (117,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.













## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>117,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>39,2 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>75,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>25,1 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>34,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>11,6 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>9,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,1 %</p>	<p><b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>12,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>4,1 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>10,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,4 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>12,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>4,0 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>8,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,7 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</b></p> <p><b>1,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,5 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>8,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,7 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>2,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>1,0 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>7,8 mlrd. so'm</b></p> <p>2,6 %</p>



2024- yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 475,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 395,5 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar – 73,2 mlrd. so'mni, otlar – 4,1 mlrd. so'mni, quyon va parrandalar – 2,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p>230,5 mlrd. so'm</p>  <p>48,5 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p>103,8 mlrd. so'm</p>  <p>21,8 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p>61,2 mlrd. so'm</p>  <p>12,9 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p>71,7 mlrd. so'm</p>  <p>15,1 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p>4,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,9 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p>1,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p>1,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p>0,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,03 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p>0,08 mlrd. so'm</p>  <p>0,02%</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 205 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 204 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>96,5</b>	<b>107,7</b>
Andijon sh.	41,9	104,0
Xonobod sh.	1,2	111,1
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	4,9	112,3
Andijon	7,7	112,2
Baliqchi	2,0	113,2
Bo'ston	2,1	97,0
Buloqboshi	0,8	112,5
Jalaquduq	2,0	111,6
Izboskan	2,8	112,7
Ulug'nor	1,1	110,9
Qo'rg'ontepa	4,4	111,2
Asaka	4,3	112,6
Marhamat	2,7	100,3
Shahrixon	12,9	112,0
Paxtaobod	3,3	111,0
Xo'jaobod	2,4	112,7

2024- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 96,5 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>898,1</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	607,2	67,6
Xonobod sh.	0,09	0,01
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	38,1	4,2
Andijon	35,7	4,0
Baliqchi	1,0	0,1
Bo'ston	0,11	0,01
Buloqboshi	0,2	0,02
Jalaquduq	1,0	0,1
Izboskan	0,4	0,0
Ulug'nor	0,07	0,01
Qo'rg'ontepa	11,5	1,3
Asaka	96,5	10,7
Marhamat	3,7	0,4
Shahrixon	3,6	0,4
Paxtaobod	0,8	0,1
Xo'jaobod	98,1	10,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (607,2 mlrd. so'm), Asaka (96,5 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (98,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)



2024- yilning yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 898,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 426,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 30,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 472,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 112,0 %) tashkil qildi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1441,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

4,8 %

68,7 mlrd. so‘m

**Yirik korxonalar**

95,2 %

1 373,0 mlrd. so‘m

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 373,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,2 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 859 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 26 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 833 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Xonobod shahri (85,0 m.), Andijon (1,9 m.), Marhamat (2,5 m.) va Xo'jaobod (2,9 m.), tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 441,7</b>	<b>112,6</b>
Andijon sh.	559,0	110,9
Xonobod sh.	7,5	125,4
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	69,6	118,4
Andijon	117,7	115,4
Baliqchi	96,3	111,6
Bo'ston	35,7	112,0
Buloqboshi	31,1	112,2
Jalaquduq	14,6	75,9
Izboskan	27,8	114,2
Ulug'nor	15,7	113,8
Qo'rg'ontepa	35,3	115,6
Asaka	45,9	113,8
Marhamat	36,1	147,1
Shahrixon	305,3	112,0
Paxtaobod	25,3	112,0
Xo'jaobod	18,7	115,2